XALQ DEPUTATLARI NORIN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2023 - yil 26 - may VI-51-63-6-83-K/23 Norin tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 126-moddasiga asosan, Norin tuman mahalliy byudjetining 2023 yil I-chorak daromadlar rejasini oshirib bajargan qismi hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrdagi “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-son Qonunining 13-moddasiga asosan, tuman hokimligining Norin tuman mahalliy byudjetining 2023 yil I-chorak daromadlar rejasini ortirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarni hamda Namangan viloyati Qo‘rqlash boshqarmasining bildirishnomalarini inobatga olib, Xalq Deputatlari Norin tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023 yil 8 maydagi 01-14/20-01-32-379/1-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 avgustdagi “Byudjet ma’lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917-sonli hamda 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-sonli Qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, tuman mahalliy byudjetining 2023 yil 1-chorak daromadlar rejasini ortirib bajarilgan qismi hisobidan, jamoatchilik fikri asosida 30 foizli “Ochiq byudjet” jamg‘armasiga yo‘naltirish uchun 232680.0 (Ikki yuz o‘ttiz ikki million olti yuz sakson) ming so‘m, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 martdagi PQ-5020-sonli qaroriga asosan, “Ayollar daftari” jamg‘armasiga 116340.0 (Bir yuz o‘n olti million uch yuz qirq) ming so‘m, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 7 iyundagi 312-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga 116340.0 (Bir yuz o‘n olti million uch yuz qirq)

ming so‘m hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi bo‘linmalari tomonidan qo‘riqlanadigan ob’ektlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 930-sonli qaroriga asosan, tuman hokimligi ma’muriy binosini va tuman hokimligi hududida jamoat tartibini saqlash, kirish-chiqishni nazorat qilish maqsadida qo‘riqlash saf bo‘limlari tomonidan tashkil etilgan post xizmati xarajatlariga 70000.0 (Etmish million) ming so‘m, jami 302680.0 (Uch yuz ikki million olti yuz sakson) ming so‘m mablag‘lar ajratilsin.

3. Harajatlarni amalga oshirishga mas’ul tashkilotlar rahbarlariga: ajratilgan mablag‘lar doirasida belgilangan tartibda to‘lovlar amalga oshirilishini ta’minlash; moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman hokimligining iqtisodiyot va moliya bo‘limi va tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limiga taqdim etish; ajratilgan mablag‘lardan to‘g‘ri, maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlash hamda iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy byudjtiga qaytarish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (G‘.Primqulov)ga tuman mahalliy byudjeti xarajatlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish, tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limi (A.Xasanov)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish hamda ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq Deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetini shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlik masalalari doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Ikramov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **Ж.Нурматов**